



MILLIY O'YINLAR YORDAMIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH.

Mamatov Avaz Agzamovich

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Maqolada o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda xalq milliy o'yinlarining tutgan o'rnini harakatli o'yinlari metodik jixatidan to'g'ri o'tkazishda bolalar rivojlanishiga ta'siri ayrim harakatlarda u yoki boshqa mashqlarni bajarishda elementar harakat malakalarini egallashlari to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktab, o'quvchi, harakat, o'yin, xalq, metodik, bola, milliy, sakrash, yugurish.*

Jismoniy tarbiya o'yinlarida harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyani boshqa vositalari o'rtasida katta o'rinni egallaydi, ayniqsa kichik sinflarda. O'rta va xususan katta sinflarda harakatli o'yinlar asosiy joyini gimnastikaga bo'shatib beradi. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar I-XI sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya dasturi talablariga mos ravishda ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalarini hal etish uchun foydalaniladi. Ta'limiy vazifalarga quyidagilar kiradi: Yugurish, sakrash, uloqtirish va boshqa harakatni tabiiy malakalarini mustaxkamlash va takomillashtirishda, shuningdek gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari va kross tayyorgarligi mashg'ulotlarida egallagan malakalaridir. Tarbiyaviy vazifalarga quyidagilar tegishli: Jismoniy sifatlarini tarbiyalash (tezlikni, chaqqonlikni, chidamlilikni, kuchni, egiluvchanlikni) jamoatchilikni rostgo'ylikni va boshqa ahloqiy, shuningdek va irodaviy sifatlarini tarbiyalash kiradi. Sog'lomlashtirish vazifalariga quyidagilar kiradi: bolalar organizmini normal shakllantirish va rivojlantirishga yordam berish, uni salomatligini mustahkamlashdan iborat. O'yinni tanlash o'qituvchini dars oldidan qo'yilgan pedagogik vazifasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, agarda darsni vazifasi - kichik maktab yoshidagi bolalarda, yugurub kelib uzunlikka sakrash malakasini takomillashtirish qo'yilgan bo'lsa, unda «Bo'ri zovurda» o'yinidan foydalanilsa bo'ladi. Ko'krakdan ko'ptokni otish va uni yuqoridan ikki qo'llab olish malakasini mustaxkamlash vazifasini xal etish uchun «To'pni uzatdingmi - o'tir» yoki «Qarama - qarshi» estafeta o'yinidan foydalanish mumkin. Talimiy vazifani xal etishda bir vaqtni o'zida jismoniy sifatni takomillashtirish, jamoada o'quvchilarni jismoniy rivojlanishiga tasir etishini ham nazarda to'tiladi. Tarbiyaviy va ta'limiy vazifa bir - biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Xuddi shunday, masalan, o'yinda balandlikka sakrash malakasini takomillashtirishda o'quvchilarga 104 o'zlarining kuchlariga ishonishni, jasurlikni, botirlikni tarbiyalaydi. Shuning uchun vazifasini qo'yishda bitta o'quv - tarbiyaviy jarayonini har xil tomonlarini hisobga olinadi. Dars uchun harakatli o'yinlarni tanlashda, shuningdek o'quvchilarning tarkibiga (yoshiga, jinsiga, tayyorgarligiga), manulotni o'tish joyiga (maydoncha, zal, karidor), asbob -



anjom va jixozlarga bog'liq bo'ladi. Bir va xuddi shunday pedagogik vazifani xal etishda, ish sharoitiga bog'liq hamda, har hil o'yinlardan foydalanish mumkin. Huddi shunday, masalan, 1-2 sinf o'quvchilari bilan o'ynaladigan o'yinda o'z oldiga harakat reaksiyasi tezligini tarbiyalash – vazifasi qo'yilganda, «Hamma o'z bayroqchasiga» (agarda mashg'ulot maydoncha yoki zalda bo'lsa), yoki «tezda o'z joyiga» (agarda mashg'ulot karidorda yoki zalda o'tkazilsa) o'yindan foydalanish mumkin. Dars oldidan – to'pni otish va ilib olishni takaomillashtirish vazifasini qo'yib, 3-4 sinflarni darslariga «Uzatdingmi – o'tir», «Ovchilar va o'rdakalar», «O'yin boshiga to'pni berma», 5-6 sinf uchun darsda esa «To'p o'rtadagiga», «Otishma», «To'p uchun kurash» o'yinlarini kiritish mumkin. O'yinda ma'lum malakani egallash uchun ko'proq murakkab vaziyatni talab qiladi: qoidalar sonini oshirish uni murakkablashtirish o'yinsilarni o'zaro birgalikdagi harkatini murakkablashtirishdir. Xar bir o'yin qatnashchilaridan ma'lum sifat, malaka va ko'nikmalarni talab qiladi. Bu mumkin emas, masalan, o'quvchilariga «To'pni ilib olish» o'yinini berilsa, agarda ular to'pni otish va ilib olish, to'pni olib yurish, harakat tezligini, raqib bilan bir-biriga yaqinlashganda to'pni ushlab olishni o'sha minimal hajmdagi egilish uchun juda zarurdir. Bu sifat, ko'nikma va malakalar o'yinda takomillashtiriladi, boyitiladi, mustaxkamlanadi. O'yinga kiritilgan, har bir harakat to'pi dastlab shug'ullanuvchmlar tomonidan maxsus mashqlarda o'rgatilgan bo'lishi kerak. Kichik maktab yoshidagi bolalarda eng asosiysi eng ko'proq taobiiy va elementar harkatlardan tashqari bo'lishi mumkin. Ular o'yinga oldindan o'rgatilmasdan kiritilishi mumkin. Shunday qilib masalan, bolalarga «Bo'ri zovurda» o'yinini o'ynashni taklif qilinganda oldindan yugurib kelib uzunlikka sakrashni o'rgatish majbur emas, chunki bolalar o'zlarining harakat tajribalaridan kelib chiqib, o'yinda bu tabiiy sakrashni bajaradi. O'qituvchining vazifasi esa bolalarni diqqatini o'yin jarayonida sakrashni ko'proq yaxshi va to'g'ri bajarishga kiritilishi kerak. Harakatli o'yinlari metodik jixatidan to'g'ri o'tkazishda bolalar ayrim harakatlarda u yoki boshqa mashqlarni bajarishda elementar harakat malakalarini egallashlari mumkin. U yoki boshqa malakani yaxshi egallashi uchun zarur bo'lgan, jismoniy sifatni, o'quvchilarda bu mashqni o'yin jarayonida foydalanishda vaqtida rivojlantiriladi. O'yinda tayin jihatdan o'zini tuta bilinsa o'yinda sekin – asta murakkablashtirib borish yo'lidan foydalanish bilan tarbiyalanadi: yangi murakkab o'yin qoidalarini kiritishlishi, o'yinchilarni o'zaro harakatini elementlari bo'yiga hammani qo'lidan keladigan yoki hammabop uni ichiga kiriuvchi, o'quvchilarining imkoniyatlariga va tashkil etishni to'zilishibo'yiga mos keladigan, qatnashchilardan murakkab o'zaro munosabatlarni talab qiladi. Modomiki jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar boshqa jismoniy tarbiya vositalari bilan birga qo'shib olib boriladi, darsda boshqa mashqlar o'rtasida esa o'yinni o'rnini to'g'ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarning organizmiga har tomonlama ta'sir etishi lozim. U shu maqsadda har xil mashqlarni tanlaydi. Darsda o'yinlar va boshqa mashg'ulot turlari o'rtasida metodik jihatdan ketma – ketligini o'rnatilishi kerak, bu butun dars jarayonida mashqlarni ko'proq to'g'ri taqsimlash va darsni zichligini bundan ham



yaxshilashga, oldiga qo'yilgan vazifani nisbatan yaxshiroq hal etishga yordam beradi. Mashqdan keyin, murakkab koordinatsiyani taranglashgan diqqatni, diqqatni bir joyga to'plashni talab qiladi. Mushaklar hozirgina faqat tezlik bilan ishlagan edi, keyingi mashqda esa (o'yinda) qatnashmasligi mumkin yoki bu qatnashishi ozgina va karakteri bo'yicha boshqacha bo'lishi mumkin. Agarda darsni to'liq asosiy qismiga bag'ishlangan bo'lsa, unda katta harkatchanlikdagi o'yin bilan kam harkatchanlik o'yini aniqlab olib borish kerak va o'yinni harkat qilish bo'yicha karakteri har xil bo'lishi lozim. Agarda 4-sinf o'quvchilari uchun darsda chalg'itish bilan yugurushni ortiq bo'ladigan o'yinlar kiritiladi – «Cho'rton baliq», keyingi o'yinlarga o'zi boshqa harakat turlarini kiritish mumkin: sakrash, qarshilik ko'rsatish, uloqtirish («Ovchilar va o'rdaklar», «Doira ichiga tort», «Juft – juft bo'lib tortishish») va x.k. Darsda, ayrim sport turlarini texnik elementlarini o'rgatishga yo'naltirilgan, ushbu sifatni soddalashtirilgan texnik elementlarini harakatli o'yinga uni taqsimlash turli maqsadida, bilish asosida kiritilishi mumkin. Agarda 7-sinf o'quvchilari uchun darsni vazifasiga o'qituvchi balandlikka «perekit» usulda sakrashni o'rgatish va past startni takomillashtirishda, «Past startdan chiqish estafetasi» o'yinida foydalanish bilan ikkinchi vazifani xal etish mumkin. O'qituvchi bunday holatda past startni to'g'ri bajarilishiga diqqatni qaratish kerak va yutuqni esa topshiriqni tez sifatli qilib bajarganiga qarab yutuq berilishi kerak. Qattiq charchashga yo'l qo'ymaslik uchun katta harakat faolligidagi o'yinni va boshqa mashqlarni bir muncha kuch va energiyani sarflash bilan birga qo'shib olib borish kerak. Biroq o'yindan keyin yugurish, sakrash yoki harakatni aniq bo'lishini, muvozanat saqlashni, murakkab koordinatsiyani talab qiluvchi mashqlarni bajarish tavsiya qilinmaydi. Harakatli o'yinlar darsni barcha qismiga shug'ullanuvchilarning tarkibi va vazifasiga bog'liq holda kiritilishi mumkin. Harakatli o'yinlar darsni qaysi qismiga kiritilgan bo'lsa, ular darsni o'sha qismidagi vazifaga mos qilishi kerak. Birinchidan darsni tayyorgarlik qismida uncha katta bo'lmagan serharakatli va murakkab yoki o'rtacha harakatdagi umumrivojlantiruvchi mashqlar karakteridagi o'yinlarni shug'ullanuvchilarni jamoasi diqqatini tashkil etishga yordam beradi.(«Taqiqlangan harakat», «Sinf tik to'ring», «To'p orqasidan quvlash» 3-5 sinf o'quvchilari uchun mos keladi), ikkinchidan, darsni asosiy qismida katta harkatchanlikdagi o'yinlardan foydalaniladi, unda harakat malakalari takomillashtirib boriladi, o'yin jismoniy va irodaviy sifatni tarbiyalashga, salomatlikni mustahkamlash maqsadida qon aylanishi va nafas olish funksiyasini yaxshilashga, jismoniy rivojlanish darajasini oshirishga yordam beradi. Bunday o'yinlarga ko'ngillik haraktli o'yinlar ko'pincha uni harakat turlariga taaluqli bo'ladi: tezlikni oshirib yugurish, chap berish bilan, chidamlikka, to'siqlarni oshib o'tish bilan, sakrashni har xil turlari, qarshilik ko'rsatish, kurash, harakatsiz va harakat qiladigan nishonga uloqtirish, to'pni egallash malakalari, har hil sport turlari elementlari va boshqalar. Uchinchi, darsni yakuniy qismida darsni asosiy qismida tezlik bilan berilgan nagruzkadan keyin faol dam olishga yordam beruvchi, o'yinlar, diqqatni tashkil etishga shuningdek darsni asosiy qismida qizg'in ishlashdan keyin shug'ullanuvchilarni



organizimini nisbatan tinch holatga keltirishga yordam beradigan, past va o'rtacha harkatchanlikdagi o'yinlardan foydalanish mumkin. «Topchi, bu kimni ovozi» (1-2 sinfda), «Kim keldi»(3-4 sinfda) «Sinf tik to'ring»(5-7sinf), «Uchuvchi to'p»(8-11sinf). Darsda vaqtdan to'g'ri foydalanish zarur bo'lgan dars zichligini yaratiladi. Darsni shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilar hamma vaqt faol bo'lishlari kerak. Shu bilan birga shunga harakat qilish lozimki shug'ullanuvchilarni o'yinda faol qatnashishlari uchun taxminan birdek sharoit yaratib berishga harakat qilish kerak. Barcha o'yinchilarni shunda xulqqa erishish uchun, har bir o'yin qatnashchisi taxminan bir xil nagruzka olishi zarur. O'yinni shunday tashkil qilish kerakki, agarda o'yinda navbat bo'yicha harakat qilishga to'g'ri kelsa, masalan, estafetada, chunki har bir o'yin qatnashchisi o'yinda faol qatnashishga kirishish oldida tushishga imkon boriga kam vaqt sarflashi kerak. Bunday holatda o'ynovchilarni ko'proq kamandaga bo'lish, topshiriq vaqtini cheralash, yugurish masofasini qisqartirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda yutqazgan o'yinchi o'yindan chiqsa, bunday chiqarishni juda qisqa vaqt bilan chegirish kerak va eng yaxshisi ochko bilan almashtirilgani maqul, chunki o'yin tamom bo'lgandan keyin uni hisobga olinadi. Ko'p sonli o'yinchilar bilan doirada bitta to'pda shug'ullanilganda («xalqa himoyasi», «harkatchan nishon», «uchuvchi to'p», «to'p o'rtadagicha», o'yinchilarni ikkita guruhga bo'lish tavsiya qilinadi va ikkita doirada bir vaqtda o'tgaziladi. Xuddi shunday o'yinni doirada qarshilik ko'rsatish bilan o'tgazish mumkin «doiraga tortish», «xo'rozlar jangi», «cho'nka shuvoq»). Bunday holatda o'ynovchilarni jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan bo'lishi tavsiya etiladi. O'yinni boshida uzoq vaqt ko'tib qolmaslik, o'yinda ko'p vaqt bo'lmaslik uchun, o'qituvchi o'yini o'tkazishga juda yaxshi tayyorgarlik kurishi zarur: o'yin uchun joyni tayyorlash, asbob- anjom, jixozlar, tushuntirishni qisqa matni, ayrim rollarni bajarish uchun o'yinchilarni tezda taqsimlash usuli, komandalarga taqsimlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kayumovna, R. M. (2021). Wellness Swimming as a Part of the Physical Education of Students. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (pp. 149-152).
2. Qayumovna, R. M. (2021). Examining and monitoring of the impact of hypo dynamic factors on the state of physical fitness in students. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 40-43.
3. Козлова, Г. Г., & Рузиева, М. К. (2022). Жисмоний маданият ўқитувчиларининг коммуникатив компетенциясини юксалтириш зарурияти. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 12-17.
4. Козлова, Г. Г., & Рузиева, М. К. (2022). Жисмоний маданият ўқитувчиларининг коммуникатив компетенциясини юксалтириш зарурияти.



INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 12-17.

5. Agzamovich, M. A. (2021). Monitoring of the Motor Readiness of the Students of the National Guard Courses. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(12), 108-110.

6. Avazbek, M. (2022, October). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKILLASHNING DIDAKTIK PRINTSIPLARI. In *E Conference Zone* (pp. 32-44).

7. Mekhmonov, R. (2022). MONITORING OF THE INFLUENCE OF HYPODYNAMIC FACTORS AND PHYSICAL PREPARATION OF STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 11-20.

8. Маматов, А. А. (2023). ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Gospodarka i Innowacje.*, 32, 40-43.

9. Aagzamovich, M. A. (2023). O 'QUVCHILAR SALOMATLIGIDA MILLIY HARAKATLI O 'YINLARNING O 'RNI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(31), 8-13.

10. Салимов, Г. М., Холлиев, А. Э., Норбоева, У. Т., & Эргашева, О. А. (2015). Организация методов исследования через национальные подвижные игры. *Молодой ученый*, (11), 1484-1486.

11. Эргашева, О. А. К. (2022). РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ КАК УЧЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ. *Вестник науки и образования*, (10-2 (130)), 58-61.

12. Ergasheva, O. A. (2022). 11-12 YOSHLI O'QUVCHILARNING TEZKORLIK SIFATINI YENGIL ATLETIKA MASHQLARI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(24), 150-153.

13. Hamroyev, A. R., & Ergasheva, O. A. (2023). THE EFFECT OF ACTION GAMES ON THE PHYSICAL DEVELOPMENT AND LEVEL OF PHYSICAL FITNESS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(18), 67-71.

14. Hamroyev, A. R., & Ergasheva, O. A. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASIGA HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIRI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(29), 291-297.

15. Islamov, I. A. (2021). Fundamentals of promotion of sports and competitions and physical training among school students. *Current research journal of pedagogics*, 2(06), 85-89.

16. Islomkhoja, I. (2021). STUDY OF STUDENT LEVELS OF MOVEMENT ACTIVITY AND INTEREST IN PHYSICAL TRAINING AND SPORTS TEACHER OF FACULTY OF PHYSICAL CULTURE. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).

17. Islomkhoja, I. (2020). Socio-pedagogical purposes of modern physical education. *Electronic journal of actual problems of modern science, education and training*.



18. Azimkhojaevich, I. I. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF INCREASING STUDENT MOVEMENT ACTIVITY (ON THE EXAMPLE OF WRESTLING AND MOVING GAMES). *Science and innovation*, 1(B2), 295-299.
19. Исломов, И. А. (2022). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲАРАКАТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ АСОСИДА ЧАҚҚОНЛИК СИФАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (КУРАШ МИСОЛИДА). *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(4), 7-11.
20. Azimkhujaevich, I. I., & Madaminovich, D. E. (2022). SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE USE OF THE GAME METHOD IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS FOR SCHOOLCHILDREN (PECULIARITIES OF THE PHYSIOLOGICAL DEVELOPMENT OF SCHOOLCHILDREN). *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(24), 15-21.
21. Azimxo'jayevich, I. I. J. (2022). Training of Personnel in the Field of Physical Education and Sports. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 156-160.
22. Исломов, И. (2023). АНАТОМО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ШКОЛЬНИКОВ МЛАДШЕГО, ПОДРОСТКОВОГО И ЮНОШЕСКОГО ВОЗРАСТА. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 596-600.
23. Исломов, И. А. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ИНТЕРЕСА К ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(25), 80-85.
24. Islamov, I. A. J., & Parpiev, O. A. (2020). SOME MODERN PEDAGOGICAL FEATURES OF THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING OF THE TEACHER OF PHYSICAL CULTURE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 313-316.
25. Исломов, И. А., & Джураев, Э. М. (2023). РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СЕМЬЕ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 1270-1275.
26. Исломова, Н. Л. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ. *IJTIMOİY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMİY JURNALI*, 2(12), 12-17.
27. Rejapovich, K. G. (2021). Issues of formation of physical work ability and its functional components in young volleyball players. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 2, 27-30.
28. Qurbonov, G. (2022). Development of physical working capacity and its functional components in young volleyball players.
29. Kurbanov, G., Qurbanali, S., & O'tkir, R. (2023). VOLLEYBALL OUTDOOR GAMES. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 12, 62-71.
30. Маматов, У., & Курбонов, Ф. (2023). МОРАЛЬНО-ВОЛЕВАЯ ПОДГОТОВКА НАЧИНАЮЩИХ САМБИСТОВ К БОРЬБЕ ЛЁЖА. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 570-573.



31. Qurbonov, G. A., & Mamatov, U. (2023). VOLLEYBALL GAME TECHNIQUE AND ITS RULES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 86-88.
32. Rejapovich, Q. G. (2022). VOLEYBOL O'YINIGA DASTLABKI O'RGATISH VA UNING MOHIYATI. Ta'lim fidoyilari, 28, 30-36.
33. Qurbonov, G. (2023). VOLEYBOLCHILARNI JISMONIY TAYYORGARLIKDA HARAKAT FAOLIYATLARIGA O 'RGATISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(30), 138-143.
34. Qurbonov, G., & Redjapov, O. (2023). BO 'LAJAK VOLEYBOLCHILARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING FUNKSIONAL AHAMIYATI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(31), 39-43.